QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo'l ko'chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2022 - yil 5 - avgust 351-4-62-Q/22 Kitob tuman hokimligi

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining 2022 yil 2 avgustdagi VI-73-91-4-62-K/22-sonli "Kitob tuman mahalliy budjetining 2022 yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'larini yo'naltirish to'g'risida"gi qarori haqida.

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining 2022 yil 2 avgustdagi VI-73-91-4-62-K/22-sonli "Kitob tuman mahalliy budjetining 2022 yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'larini yo'naltirish to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Referendumga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davrida tashkiliy ishlarni amalga oshirish, shuningdek o'quv jarayonida ishtirok etuvchi tuman hududiy trenerlarini ovqatlantirish va kanselyariya mahsulotlari sotib olish xarajatlariga mablag' ajratishni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga asosan:

QAROR QILAMAN:

1.Tuman moliya bo'limi (I.Raxmonov) tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Referendumga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davrida tashkiliy ishlarni amalga oshirish, shuningdek o'quv jarayonida ishtirok etuvchi tuman hududiy trenerlarini ovqatlantirish va kanselyariya mahsulotlari sotib olish xarajatlariga 90000.0 ming so'm mablag' ajratsin.

2.Ushbu mablag'ni kassa xarajatini o'z vaqtida amalga oshirish tuman

g‘aznachilik bo‘linmasi (A.Usmonov) ga yuklatilsin

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (S.Mirzaev) ajratilgan mablag‘dan maqsadga muvofiq foydalansin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Kitob tuman hokimi **Pardayev U.B**

Kitob tuman hokimining
2022 yil 5 avgustdagi
351-4-62-Q/22-son qaroriga
1-ilova

XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 2 - avgust VI-73-91-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumani mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'larini yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi"ning 126-moddasiga asosan tuman hokimligining Kitob tumani mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'larini yo'naltirish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimligining Kitob tumani mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'larini ilovaga muvofiq yo'naltirish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Z.Ergashev), tuman moliya bo'limi (I.Raxmonov) bilan birgalikda:

Mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ko'zda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimi qarorlari loyihalarini 3 kun muddatda tayyorlasin;

O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritsin;

Ajratilgan maqsadli mablag'larni o'z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o'rganish hamda o'rganish natijalariga ko'ra,

ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag'larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralari ko'rilsin.

3. Tuman g'aznachilik bo'linmasi (A.Usmonov) ajratilgan mablag'lar bo'yicha shartnomalarni o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligiga mahalliy budjetning 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'larini birinchi navbatda, ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, "Obod qishloq" dasturlarini moliyalashtirishga hamda 30 foizdan kam bo'lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirilishini ta'minlasin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tuman hokimligi bilan birgalikda qo'shimcha mablag'larning 30 foizidan kam bo'lmagan miqdorini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo'naltirish uchun "Ochiq budjet" tizimi to'g'risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarga faol ishtirokini ta'minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Z.Ergashev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi Egamberdiyev B.B

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining
2022 yil 2 avgustdagi
VI-73-91-4-62-K/22-son qaroriga
1-ilova

e-qaror.gov.uz 08.08.2022

Китоб туман маҳаллий бюджетининг 2022-йил 1-январь ҳолатига 2022 йил 2 чорак даромадлар режасини ошириш ҳисобидан маблағларни ҳисобдан ажратиш тўғрисида таклиф этилаётган тадбирлар

ХИСОБ-КИТОБИ

минг сўм да

Тр	Маблағ ажратилаётган ташкилотлар номи	Амалга оширилаётган тадбирлар номи	Маблағ ажратишга асос	Ҳаракатдаги маблағ миқдори (минг сўм)
1	туман ҳокимлиги	тумандаги "Ёшлар дафтари" киритилган ёшларни иштиҳоли кўлаб қувватлаш жамғармасига маблағ ажратиш	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 17-мартдаги "ЁШЛАРНИ ИШТИҲОЛИ КЎЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БЎЙИЧА ҚЎШИМЧА МОРА-ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА"ги 132-сонли қарорига асосан	689 748,0
2	туман ҳокимлиги	тумандаги "Аёллар дафтари"га киритилган хотин-қизларни иштиҳоли кўлаб қувватлаш жамғармасига маблағ ажратиш	Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартдаги ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ ҚЎЛДАБ-ҚУВВАТЛАШ, УЛАРНИНГ ЖАМИЯТ ХАЁТИДАГИ ФАОЛ ИШТИРОКИНИ ТАЪМИНЛАШ ТИЗИМИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА"ги ПҚ-5020-сонли қарорига асосан	689 748,0
3	туман ҳокимлиги	Туман ҳокимлиги ҳузуридаги ташкилотларга боғлиқ бўлмаган, электр энергия тўлови, ичимлик суви тўлови, интернет ва алоқа хизматлари, "хулио" ва "валех" селектор тизими хизматлари, иссиқлик ва қишлоқ мамлакатлар сотиб олиш, махсус қўриқлаш хизмати ва камида олтмиш ёшдан юқори бир марталик моддий ёрдам кўрсатиш ва иқтисодий ҳаражатларга	Туман ҳокимлиги томонидан иштиҳоли сақлаш ривожлантириш ва ёшларга иш билан таъминлашга ва ошириш чора-тадбирлари ҳамда туман ҳокимлигининг 2022-йил 26-июлдаги 02-95-сонли ҳати	151 941,0
4	туман ҳокимлиги	туманни архитектура бўйича тоғмасдан "Архитектура-режалаштириш топшириқ ҳужжати"ни тўлаб бериш ҳаражатларига	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 20-декабрдаги "Тадбиркорлик ва Шаҳарсозлик фаолиятини амалга оширишни ўзи бўй турган ер участкаларини бериш тартиб-таомилларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1023-сонли қарорига асосан, Ушбу қарорнинг "Тадбиркорлик ва шаҳарсозлик фаолиятини амалга оширишни ўзи бўй турган ер участкаларини электрон онлайн-аукцион орқали бериш тартиби тўғрисида"ги Низомнинг 1-боб, X-бандига асосан ва туман кўрилиш бўлимининг 2022 йил 12 апрелдаги 105-сонли ҳати	33 678,0
5	туман ҳокимлиги, молия бўлими ва статистика бўлими	туман ҳокимлиги, туман молия бўлими, туман статистика бўлимасига қарашли жойлашган туман кенгаши депутатлари аппарат ходимлари ҳамда техник ходимларини иш самарадорлигини ошириш, молиявий-маънавий ҳамда моддий қўллаб-қувватлаш ва ҳар хил ҳолатларга коррупциянинг мустақил пасайишини олдини олиш учун ягона ва ягона ҳақ миқдорини бир барабаридан (иккі давлат ойлари учун) икки барабар миқдорда рағбатлантириш пули ажратиш ҳаражатларига	Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбари раҳбарлигида кенгайтирилган тарзда ўтказилган йиғилиш баённомасига Ҳокимларнинг раҳбарининг 2019 йил 24 июлдаги 04/1-261-рақамли кўрсатмасига, Ўзбекистон Республикасининг "2021 йил Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети тўғрисида"ги Қонунига асосан ва туман ҳокимлигининг 2022 йил 27 апрелдаги 02/62-сонли ҳати	404 630,0
6	туман йўллар ва кўприклар бошқармаси	Тумандаги Жарқўрғон қишлоғи ва Кўбристон орасидаги тупроқ йўлни жорий таъмирлаш (қум-шағал тўкиб) ташқи йўлга айлантириш, 2022- йил январ-июн ойларида туман худудида ўтказилган тадбирлар учун ранги банкер тайёрлаш харажатларидан бўлган картонларини тўлаб бериш ва йўлларни ва кўприкларини жорий таъмирлаш ишларини бажарилиши ва ҳисобдан ажратилиши ва ҳисобдан ажратилиши 2 дона ТТЗ 80-10 трактор ва тирқамаларини жорий таъмирлаш ва эҳтиёт қисмлар сотиб олиш ва тумандаги маҳаллалар ички йўллари иншоот арадашмаси билан ёпқичли ариқларга ва оқизиш йўллари мавзоли зарҳат ва уй кўчаларини суғориш, сақлаш ишлари учун бошқарма балансидаги техникаларига дизел ёқилғиси харид қилиш	Туман ҳокимлиги томонидан иштиҳоли сақлаш ривожлантириш ва ёшларга иш билан таъминлашга ва ошириш чора-тадбирлари ҳамда туман йўллар ва кўприклар бошқармасининг 2022-йил 19-июлдаги 184-сонли ҳати	253 000,0
7	туман ҳокимлиги	Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш бўйича Референдумга тайёрлардан кўриш ва ўтказиш ҳақида ташкилий ишларни амалга ошириш, шунингдек ушбу жараёнда иштирок этувчи туман худудий тренерларини ишга киритиш ва ҳаражатларни малумотлари сотиб олиш	2022 йил 25-январдаги Б-81-17/285-сонли ёзишма баённомасига асосан ва туман ҳокимлигининг 2022 йил 26 июлдаги 02-94-сонли ҳати	90 000,0
8	туман ҳокимлиги	Китоб туман ҳокимининг молия иштироқ ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича тренбосари Эрганов Ҳафар Нематовични иш ҳақини бўйича ишсизлик нафақа қайд этилганлигини ишбатга асосан, рағбатлантириш	Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбарининг 2022 йил 23 мартдаги 02-РА 1/1-380-сонли топшириғи, туман Ҳокимлигининг 2022 йил 30 июлдаги А-02/3913-сонли ҳати	45 000,0

9	Халқ таълими бўлими	Туман Халқ таълими бўлимининг фаолиятлар залига кондиционер сотиб олиш харажатларига	Туман ҳокимлиги томонидан иқтисодиёт соҳани ривожлантириш ва ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳамда туман Халқ таълими бўлимининг 2022-йил 01-августдаги 542-сонли қарори	42 000,0
10	Халқ таълими бўлими	Туман Самарқанд МФЙ Жонуз жойт қишлоғида жойлашган 86-сонли умумий ўрта таълим мактаб ҳудуди девор билан ўралмаганлиги сабабли атрофини тўлиқ ўраш харажатларига	Туман ҳокимлиги томонидан иқтисодиёт соҳани ривожлантириш ва ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳамда туман Халқ таълими бўлимининг 2022-йил 26-июндаги 519-сонли қарори	150 000,0
		2022-йил 2-чорак ҳаромталар режасини ошириб бажарилган қисми маблағлари ҳисобидан ажратилган жами маблағ:		2 546 745,0

Китоб туман Молия бўлими мудири Н.Раҳмонов